

**Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning  
ilmiy-nazariy asoslari**

*Umurzakova Bonukhon Azizovna*

*Farg'ona davlat universiteti Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrası  
katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatning shakllantirish tizimi tahlili tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** **Mediamadaniyat, mediata'lim, axborot xuruji, axborot savodxonligi, mediamahsulot, mediamadaniyat**

Shaxs faoliyatining barcha jabhalarida xalqaro aloqalarning kengayishi, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlardan avvalgiga nisbatan erkinroq foydalanish, axborot-kommunikatsiya vositalarining barcha sohalarga keng joriy etilishi har bir insondan hech bo'lmasa bitta xorijiy tilni bilishni talab etadi. Xorijiy tilni amaliy bilish bizning davrimizda nafaqat yaxshi ta'lim belgisi, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Bugungi kunda esa Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'rganishda axborot-kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqdan teng nisbatda foydalanish zaruratini beradi.

Workoteka.ru portalining o'tkazgan so'rovnomasiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya sohalar tarmog'ida chet tilini biladigan hodimlarga bo'lgan (asosan ingliz tili) extiyoj birinchi o'rinda turadi.<sup>1</sup> Bu esa o'z-o'zidan xorijiy til o'rganuvchilarda ijtimoiy tarmoq, mediamahsulot bilan ishlash ko'nikmasi boshqa soha vakillariga nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, mediavositalarning ta'lim sohasidagi o'rni, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish tizimida ahamiyatlidir. Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchisining til bilish saviyasi chet tilini o'qitish sohasidagi madaniyatlararo muloqotda to'liq ishtirok etish imkoniyatini beradi.

"Mediamadaniyat" atamasini mualliflik yondoshuvi asosida tahlil qilar ekanmiz, media so'ziga ijtimoiy tarmoq yoki axborot kommunikatsiya vositalari yordamida bizga yetkaziladigan har qanday ko'rinishdagi axborot yoki xabar beruvchi sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'ladi. O'z navbatida media to'rt xil shaklda bo'ladi: bosma (gazeta, jurnal), video, audio va rasm.

<sup>1</sup> Кудряшова А.П. Роль изучения иностранного языка в современном образовательном процессе.

Madaniyat atamasi esa, jamiyat tomonidan belgilangan, ma'lum normalarga asoslangan, insoniyatning xulqi, bilimi, dunyoqarashi, maqsadlari, urf-odatlari va qadriyatlarini jamlanmasi deya ta'riflash mumkin. Madaniyat so'ziga O'zbekiston milliy ensiklopediyasida<sup>2</sup> arabcha "Madina" so'zidan olingan deyiladi. O'rta asr madaniyati asoschilaridan bo'lgan Abu Nasr Farobiy talqiniga ko'ra "har bir inson o'z tabiatiga ko'ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi." Uning fikriga ko'ra "madaniy jamiyat va madaniy shahar(mamlakat) bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi."<sup>3</sup>

Bugungi kunda mediamadaniyat so'zining sinonimi sifatida pedagogikada "mediata'lim" va "mediasavodxonlik" so'zlari ham qo'llaniladi. Mediata'lim-shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi.

Ommaviy axborot vositalarining kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir etish va ongni boshqarishdagi imkoniyati juda katta. Mediata'lim atamasi doirasida, jamiyat hayotida, ayniqsa yoshlar o'rtasida "blogger", "xesh-tek", "chellenj", "tik-tokerchi" "selfi" kabi atamalar paydo bo'ldi. Bu kabi atamalar yoshlar hayot tarzini tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu atamalar o'z navbatida xorijiy tillardan o'zlashtirilib, yoshlar o'rtasida yangi qiziqishlarning ommalashishiga sabab bo'lmoqda.

Mediatadqiqotchilar selfi tushish paytidagi baxtsiz hodisa va o'limlarni o'rganishda "Heimdill-Project" epidemiologik razvedka usulidan foydalanishmoqda. Bu usul yordamida ijtimoiy tarmoqdan Selfi oqibatida sodir bo'lgan barcha baxtsiz hodisalar haqidagi axborotni topa oladi, shu bilan birga, Selfi vaqtida o'limga olib kelmagan baxtsiz hodisalarni hisobga olmaydi. 2020 yil statistikasiga ko'ra Selfi vaqtidagi o'limlar 50 ta davlatga tegishli bo'lgan. Bugungi kunga kelib(2022), bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Ijtimoiy tarmoqning bu kabi salbiy oqibatlarini minglab sanash mumkin.

Bunday mediavositalarining yoshlar hayotida salbiy oqibatlarini oldini olish va millat mentalitetiga ta'sirini kamaytirish xorijiy til o'qituvchilaridan katta mahorat va ma'suliyat talab etadi. Xorijiy til o'qituvchisi chet tilini biluvchi mutaxassis sifatida talaba-yoshlarda o'zga millat yoki mamlakat madaniyatini o'z madaniyati va an'analari aralastirmasligini, qabul qilinayotgan mediamaxsulotni taxlil qilish, uning davlat va jamiyat xayotiga salbiy ta'sirini kamaytirishda vositachi bo'lib xizmat qiladi

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild, 2000y

<sup>3</sup> Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlodi. 2016. – B. 163-164

Xulosa shuki, har bir talaba-yoshlar jamiyat va millatimizning ertangi kelajagiga dahldor mustahkam poydevordir. Shunday ekan, talabalarning ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli ravishda foydalanishlari, ularda mediamadaniyatni shakllantirish, ular foydalanayotgan vertual olamga ko'z-quloq bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Dissertatsiyaning «**Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi**» deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarida fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatni shakllantirishning mazmuni va modeli hamda uni rivojlantirishning amaliyotdagi o'rni, xolati tadqiq etilgan.

Mediatizatsiyalashuv natijasida medialar tashkilot va muassasalar hamda jamiyatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi va ular medialarga bog'lanib qoladi<sup>4</sup>. Shu bois xorijiy mediadan foydalanishda mediamadaniyatni shakllantirish, uni birinchi qabul qiluvchilari bo'lgan xorijiy tilga ixtisoslashgan kasb egalarini mediasavodxonligini oshirish masalalari dolzarblik kasb eta boshlaydi.

Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarida mediamadaniyatni rivojlantirish orqali ularda o'quvchilarga til o'rgatishda mediadan ratsional foydalanish ko'nikmasini shakllantirish mumkin bo'ladi. Ya'ni talabalarga media mahsulotdan til o'rganishdagina foydali jihatlarni olish ko'nikmasini shakllantirish amaliyotini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, doimiy axborot aloqasi bo'lmasa, insonning to'la qonli rivojlanishi, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning mo'tadil faoliyat olib borishi mumkin emas<sup>5</sup>.

Shu bois bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarini mediamadaniyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish tadqiqotning ilmiy-pedagogik vazifalaridan biri bo'ldi. Modelning maqsadi xorijiy til o'rganayotgan talabani fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Oliy o'quv yurtlari uchun yaratiladigan multimediali media vositalar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- tanlangan fan mazmuni, ta'lim maqsadlariga hamda davlat ta'lim standartlariga mos kelish;
- bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mustaqil bilim olishini ta'minlash;
- boshqa fanlar bilan uyg'unlashish (integratsiya);
- fanga oid yetarli miqdordagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirish;

<sup>4</sup> Mamatova YA, Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyotiyo'lida. O'quv qo'llanma.– Toshkent.:«Extremum-press», 2015. –B.8.

<sup>5</sup>Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64.

▪ bo'lajak xorijiy til o'qituvchilariga o'z-o'zini yoki professor-o'qituvchiga talabalar bilimni baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratish. Shu bilan bir qatorda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik turmush amaliyoti bilan bog'lashga, ta'lim va tarbiyani o'zaro chambarchas bog'lashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilmog'i zarur.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishda tarbiya sub'ektlarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarining o'zaro aloqasi va uzviyligini ta'minlash, yomon xulqli talabalarning kundalik hayot faoliyatini kuzatish, axborot profilaktika tadbirlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir talabaga alohida profilaktik ta'sir ko'rsatish uning ongiga milliy axloq me'yorlariga doimiy rioya qilish zarurligini singdirish hamda ularga tarbiyaviy va nazoratli ta'sir o'tkazish metod va usullari, ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy jihatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayni paytda bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilariga salbiy ta'sir etadigan medianing ma'naviy buzg'unchi omillarni bartaraf etish va ularning munosabatini o'zgartirish tizimini o'rnatish maqsadida axborot muhitiga ta'sir etish shakllarini belgilash zarur bo'ladi. Bu esa har bir talabaga samarali ta'sir eta oladigan ijobiy axborotlarga tayanadigan ta'sir vositalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarda media ta'siriga qarshi ijobiy axborot muhitini yaratishning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- -mediata'lim jarayonining mazmunliligi, yo'naltirilganligi, uzviyligi; bir tomondan talabalarga ma'naviy-ma'rifiy talablarni o'rgatish, boshqa tomondan ular shaxsining xususiy jihatlari va umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganligi;
- -bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida mediata'lim asosida himoya imuunitetini shakllantirishda majburlashga yo'l qo'ymaslik;
- -bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari faolligi, tashabbuskorligi va irodasini namoyon etishiga erishish.

Bugungi kun tolibi ilmlarining dunyoqarashi va tafakkuri va u asosidagi mediamadaniyati televizion kanallarning yangidan-yangi imkoniyatlari, videotexnika, kompyuter va internet internet tarmog'i kengayib borayotgan bir sharoitda shakllanmoqda. O'z navbatida bu hozirgi globallashuv sharoitida media tizimlari va texnologiyalari orqali ko'plab axborot xuruji va ommaviy madaniyat xavfi kuchayib borayotgan bir jarayonda namoyon bo'lmoqda<sup>6</sup>. Bu jarayonda turli internet-kafe,

<sup>6</sup>G'ulomov S. va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq, 2000. 46 b.; Erkayev A. Globallashuv, axborot xuruji va ommaviy madaniyat. –T. 2009. –B. 18..

kompyuter klublari, kompyuter o'yinlarini tashkil qilayotgan shaxslar talabalarni doimiy muxlisga aylantirish uchun medianing barcha imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar. Xilma-xil kayfiyat uyg'otuvchi axborotlar orqali amalga oshirilayotgan g'oyaviy buzilishlar natijasida turli salbiy holatlar sodir bo'lmoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatning oldini olish uchun tezkor choralar asosida mediamadaniyatni shakllantirish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassis yoki tir o'qituvchisining kundalik faoliyat dasturiga kiritilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bonuxon Umurzakova Azizovna “ Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini zararli axborotlar tahdididan himoyalashda milliy va umummilliy qadriyatlarga asoslanish tamoyili” Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.2020y 60-b
2. B. Umurzakova Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishda ta'lim tizimlarining integratsion hamkorligining ahamiyati. Miasto Przyszlosci. Kielce 2022.20b
3. Mamatova Y, Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–Toshkent.: «Extremum-ress», 2015. –B.8.
4. Kadirova M.R.Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassalari talabalariga chet tilini o'rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash. 2018.
5. Islomov Z. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2005  
va M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Avtoref. ... fal.fan.dok. – T., 2012. – 56 b.